

O‘SMIRLAR MA’NAVIY – AXLOQIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA KUZATISH VA EKSPERIMENT METODINING O‘RNI.

Yuldosheva Zoxida Nazarovna

Annotatsiya : *ushbu maqolada o‘smirlar ma’naviy – axloqiy sifatlarini rivojlantirishda kuzatish va eksperiment metodlaridan foydalanishning ahamiyati yoritib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *ma’naviy –axloqiy sifatlar, o‘smirlik yoshi, kamolat, tarbiya, oilaviy an‘analar, xulq-atvor, psixolog, korreksiya, nisbiy barqaror muhit.*

Аннотация : *В данной статье освещается значение использования методов наблюдения и экспериментов в развитии духовно – нравственных качеств подростков.*

Ключевые слова: *духовно –нравственные качества, подростковый возраст, зрелость, воспитание, семейные традиции, поведение, психолог, коррекция, относительно стабильная среда.*

Annotation: *this article highlights the importance of observation and the use of experimental techniques in the development of spiritual and moral qualities of adolescents.*

Keywords: *spiritual and moral qualities, adolescence, maturation, upbringing, family traditions, behavior, psychologist, correction, relatively stable environment.*

Kirish

Shaxsning axloqiy jihatdan intensiv tarkib topishi, axloqiy ongining shakllanishi, xatti-harakatlarning yetuk normalarini o‘zlashtirishi o‘smirlik yoshining muhim psixologik xarakteristikalaridandir.

O‘smirlik yoshi - o‘z xatti-harakatlarida suyana boshlaydigan dunyoqarashning, ma’naviy e’tiqod, prinsip hamda ideallarni baholash mulohazalari tizimining tarkib topish davridir. Agar bola kichik maktab yoshi davrida kattalarning, o‘qituvchilarning va ota-onalarning bevosita ko‘rsatmalari bilan yoki o‘zining tasodifiy, impulsiv istaklari ta’siri bilan harakat qilgan bo‘lsa, endilikda uning uchun o‘z xatti-harakatlarining prinsipi, o‘zining qarashlari, e’tiqodlari asosiy ahamiyat kasb etadi.

O‘qituvchi va tarbiyachi shuni nazarda tutishi lozimki, xuddi ana shu yoshda axloqiy ong taraqqiyotiga zamin qo‘yiladi. Avvalo biz so‘z boshimizda axloq so‘zi mazmun-mohiyati to‘g‘risida fikr yuritsak **“Axloq”** (arabcha – xulq-atvor ma’nosini bildiradi) - ijtimoiy ong shakllaridan biri bo‘lib ijtimoiy munosabatlar hamda shaxs xatti-harakatini tartibga soladigan qonun-qoidalar majmuidir.

Axloq-ma’naviyatning tarkibiy qismi sifatida shaxs kamolotining yuqori bosqichi sanaladi. Zero, axloq, axloqiy me’yorlarsiz shaxsning ruhiy va jismoniy yetukligining mezoni bo‘lgan ma’naviy kamolotga erishib bo‘lmaydi. Axloq jamiyatdagi munosabatlarni tartibga soladi va ijtimoiy rivojlanish ehtiyojlari ifodalanadigan maqsadlarni ilgari suradi. Kamolotning krizislar, tanazzullar bosqichi bo‘lmish o‘smirlik davrida har bir o‘smir qay usulda axloqiy tajriba orttirishiga, qanaqangi axloqiy faoliyatni amalga oshirishiga qarab uning shaxsi ham tarkib topa boshlaydi. Shuni esdan chiqarmaslik kerakki, o‘smirlik yoshi axloqiy jihatdan intensiv rivojlanish yoshi bo‘lganligi tufayli ko‘pincha o‘smir ongida, tarbiyachi o‘quvchi ongiga singdirmoqchi bo‘lgan xislatlarga qarama-qarshi axloqiy tushunchalar tarkib topishi mumkin²⁰³. Biz bolani mehnat bilan jazolash mumkinmi, deb tez-tez muzokara qilamiz. Bu muammoni o‘smirga nisbatan qo‘yadigan bo‘lsak, u yanada ortiqroq ahamiyat kasb etadi. Chunki o‘smirlarda axloqiy maslaklarning ma’lum tizimi ham, shu jumladan mehnatga munosabat ham tarkib topa boshlaydi. Ba’zi odamlar mehnat bilan jazolash mumkin deb qaraydilar va bu holatni oqlashga harakat qiladilar. Kichik yoshdagi o‘smirlar uchun odatda qandaydir bir kishi ideal bo‘ladi. Bu odam o‘smir yuksak darajada baholaydigan sifatlarni o‘zida gavdalantirgan bo‘ladi. Ko‘pincha bunday ideal ota-onalar, o‘qituvchilar yoki yaxshi ko‘radigan kitobidagi va kinofilmidagi qahramonlardir. Katta yoshdagi o‘smirlarda ideal sifatlarni majmui umumlashgan obrazlar ideallar sifatida yuzaga chiqa boshlaydi. L.N.Desev o‘smirlarning axloqiy tushunchalari mazmunini o‘rganib, ularning axloqiy kategoriyalarni tushunishlari ko‘pincha yuzaki formal xarakterga ega ekanligini ko‘rsatib berdi. Psixologlar bir tomondan o‘smirlarda yuzaga kelayotgan e’tiqodlar, axloqiy g‘oyalar, tushunchalar va ustanovkalar, ikkinchi tomondan ularning xatti-harakatlari, qiziqishlari, aniq xulq-atvorlari o‘rtasidagi munosabatlarni tadqiq qildilar. A.L.Maliovanov ana shu nuqtai nazardan o‘smirlarni to‘rt guruhga ajratgan:

²⁰³ Baxtiyorjonova M, N. Usmonova. O‘smirlardagi axloqiy idealning rivojlanish xususiyati.//Kokand University,2020.- 752 b

1) o‘z xatti-harakatlarida ularning o‘zlari tomonidan yaxshi anglagan ijobiy axloqiy normalarga tayanadigan, so‘zi bilan ishi o‘rtasida farq bo‘lmaydigan o‘smirlar;

2) kichkinagina o‘smirlar guruhi hatti-harakatlarning axloqiy normalariga doir o‘zining yaxshi bilimi bilan ajralib turadi, lekin bu bilimlarga mos ravishda harakat qilishni o‘ziga lozim deb biladigan;

3) axloqiy tushunchalarning taraqqiyot darajasi pastligi bilan qiliqlari mos keladigan o‘smirlar;

4) o‘zlariga ma‘lum bo‘lgan axloq talablari bilan kundalik xatti-harakatlari o‘rtasidagi aloqani hali ko‘ra olmaydigan, tushunmaydigan o‘smirlar.

Ularning ko‘pchiligi ayrim axloqiy kategoriyalarning mazmunini; yetarli darajada anglamaydilar²⁰⁴. Ko‘pgina axloqiy tushunchalarni noto‘g‘ri anglab, shaxsning ayrim sifatlarini xato tushunib va baholab, qaram bo‘lmaslik va mustaqillikka intilib, o‘z irodasini ko‘rsatishga noto‘g‘ri harakat qilib, ayrim o‘smirlar ba‘zan ataylab o‘zlarida ob‘ektiv jihatdan salbiy bo‘lgan sifatlarni rivojlantiradilar va o‘zlaridan ijobiy sifatlarni siqib chiqaradilar. Tarbiyaning vazifasi mohirlik bilan o‘smirlarning noto‘g‘ri qarashlarini yengish, ishning mohiyatini tushuntirish va o‘smirlarning adashishlariga yo‘l qo‘ymaslikdan iboratdir. Tarbiyaviy tadbirlarni samarali va to‘g‘ri tashkil etilsagina o‘smirni hayotida keskin o‘zgarishlar mavj ura boshlaydi. Ammo, bu ishni zerikarli quruq nasihatgo‘ylik va jonga tegadigan aql o‘rgatishlar bilan emas, balki samimiy, chin qalbdan va do‘stona olib boriladigan suhbatlar bilan amalga oshirish kerak. Bu borada har bir fan o‘qituvchilari to‘g‘ri axloqiy tushunchalarni tarkib toptirishda o‘z fanlarining imkoniyatlaridan foydalanishlar mumkin. Jamiyatda yuz berayotgan o‘zgarishlar jamiyat va shaxs ongida aks etadi. Ikkinchi tomondan, ma‘naviyat sohasidagi o‘zgarishlar jamiyatda yuz berayotgan o‘zgarishlarning miqyosiga, yo‘nalishiga va sur‘atlariga jiddiy ta’sir o‘tkazishi mumkin. Shuning uchun mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy sohalarida amalga

²⁰⁴ Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot. – T.: Universitet, 2002. – 96 b

oshirilayotgan tub o‘zgarishlar jamiyatimiz, ijtimoiy guruhlar va alohida fuqarolar ongida o‘z in’ikosini topmoqda.

O‘smirlik yoshi - bu shaxsning sog‘lom moslashuvchan qobiliyatlaning va tashqi noxush sharoitlatga qarshi tura olish malakasining rivojlanishi uchun, ayniqsa, muhim bo‘lgan o‘tish davri. Kattalarga taqlid qilgancha o‘g‘il bolalarda ichish, chekishni, qizlarda bo‘yanish, kattalarcha soch turmagini sinab ko‘rishga qiziqishning ortishi, shu bilan bog‘liq ravishda tashqaridan zo‘ravonlik, emosional jarohatlar hamda psixik salomatlikdagi muammolar bu yoshni yanada xavfli qilib qo‘yadi. O‘smirlarning jismoniy salomatligidagi o‘zgarishlar, maktab yoshidagi kasalliklarning ortishi bilan ham o‘ziga xoslikka ega. Bu nafaqat yomon ekologiya va noto‘g‘ri ovqatlanish, balki o‘smirlarning virtual olamga kirishi (kompyuter o‘yinlari, telefon, ijtimoiy tarmoqlar orqali muloqotlari, internet tarmog‘idagi bir-biriga zid ma’lumotlar va h.k.) bilan bog‘liq ravishdagi gupodinamiyasi bilan ham bog‘liq. O‘smir yoshidagi yetakchi ziddiyat o‘smir uchun o‘z rivojlanishida ijobiy tomonga bo‘lganidek, salbiy ma’naviyat tomoniga ham yo‘nalishning teng ahamiyatli imkoniyatini shartlovchi ma’naviy olamdagi antinomiya²⁰⁵. Aytish mumkinki, o‘smirlarda ma’naviy maqbul qiyofani shakllantirish, ijtimoiy korreksiyalashning pedagogik strategiyasi hamisha dolzarb bo‘lgan va asosan ijtimoiy-iqtisodiy omillar bilan shartlangan. Zamonaviy olamda halokatli ijtimoiy-pedagogik vaziyatda shaxsning shakllanishini belgilovchi destruktiv omillar bo‘ladi:

- an’anaviy qadriyatlar va avlodlar ijtimoiylashuvining an’anaviy mexanizmlarining siyqalanganligi;
- millatning ma’naviy o‘zligini parchalaydigan, tajovuzkor jaholatda namoyon bo‘luvchi axloqsizlik fenomenining yuzaga kelishi;
- jamiyatning shaxsga qo‘yadigan yangi ijtimoiy reyallik bilan tug‘ilgan talablarining yangi tizimini yuzaga kelishi;
- tashqi begona qadriyatlarning aniq etnosga faol singdirilishi – ularni bo‘ysindirish yoki tinch yo‘l bilan zabt etishga urinish usuli sifatida;
- ta’limni tarbiyalovchi va tarbiyalanuvchining pozitsiyasini kuchaytirish va susaytirish komponentlarini hosil qilishda rollarni qayta baholash va h.k.

²⁰⁵ Miloxina G.G. Formirovanie duxovno-pravstvennie sennostey podrostkov kak osnovnoe napravlenie vospitaniya lichnosti v shkole. -M., 2015. 85-87-6.

O‘smirlar ma’naviy qiyofasini ijtimoiy-korreksiyalashda ularning quyidagi oilalarda chiqqanligiga e’tibor qaratish darkor:

- Oilaviy an’analar asosida o‘smir ma’naviy qiyofasini shakllantira oladigan va ularni boshqa ota-onalar bilan bo‘lishadigan oilalar.

– O‘smirning o‘zi ichki shaxsiy muammolarini hal qilishga majbur bo‘lgan oilalar. Bunday oilalarda ota-onalar psixologik-pedagogik ma’rifatga muhtoj bo‘ladilar. Bunday oilalarda har qanday tarbiya maskanlarining o‘rni bor. O‘smirning axloqiy, psixologik, psixik, jismoniy salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan va uning o‘zi hamda boshqalarga nisbatan tajovuzkorlikni qo‘zg‘aydigan oilalar. Bunday oilalar o‘smirda ma’naviy qiyofaning me’yorda shakllanishiga to‘sqinlik qiladi. Bunday ota-onalar bolalarni begonalashtirishgacha bo‘lgan ota-onalik axloqini korreksiyalashning maxsus kurslarini o‘tashga muhtoj bo‘ladilar. O‘smirlar ma’naviy qiyofasini ijtimoiy korreksiyalash sub'ektlari sifatida oila a’zolari, maktab jamoasi va ta’limiy-tarbiyaviy jamoatchilik guruhlar, tashkilotlari, submadaniyat va uning o‘zi chiqadilar. O‘smirlar ma’naviy qiyofasini shakllantirishda etnopedagogika vositalarining asosiy tarkibiy qismlari bo‘lib quyidagilar yuzaga chiqadi:

1. O‘smir bilan : o‘zaro aloqani qo‘llab - quvvatlashga tayyorlik; axborotga oid - olam, ta’lim va tarbiya to‘g‘risidagi bilimlarni olish va berish; muvofiqlashtiruvchi - faoliyatda kelishilgan va oqilona harakatlar; shaxsiy - ishonchli, yaqin odamlarni tanlash; ishga oid - muloqotning pragmatik yo‘nalganligi va h.k. vazifalarni bajaradigan muloqot. O‘smir bilan inson parvarona o‘zaro harakatlanish quyidagilarni: o‘smir shaxsiga ko‘ngilchanlik emas, balki shaxs sifatida hurmat bilan munosabatda bo‘lishni; uning xususiyatlarini borlik sifatida tan olishni nazarda tutadi.

2. Kattalarning o‘smirlar bilan hamkorlik sifatidagi faoliyati shaxs shakllanishidagi asosiy omil hisoblanadi. Faoliyat turli yondashuvlarga asoslanadi, biroq o‘smirning ma’naviy qiyofasini shakllantirishda uning shaxsiga germeneytik yondashuv, ya’ni o‘smirning tafakkuri, tuyg‘ulari, kechinmalarini chuqur tushunish va sinergetik yondashuv-turli omillar ta’sirida o‘smirning o‘z-o‘zini uyushtirishi alohida rol o‘ynaydi. O‘smir u yoki bu darajada faoliyatning har xil – o‘quv, ijtimoiy, gedonik, sportga oid. badiiy, ijodiy, mehnatga oid va h.k. turlariga jalb qilingan. Faoliyatning har xil turlarida o‘smirlar ma’naviy qiyofasini shakllantirishda ta’limiy-tarbiyaviy muassasalarga yetakchi va yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi rol ajratiladi. O‘smirlar

bilan muloqot va faoliyat ularning hayotiy faoliyati muhitida tarbiyalovchi sharoitni yaratishda muayyan natijani olishga yo‘naltirilgan. Arap o‘smir sezilarli xususiyatlarni namoyon etsa, nisbiy barqaror muhit (oilalar, maktab, qo‘shimcha muassasalar va h.k.) kabi tabiiy norasmiy muhit (submadaniyat, qarindoshlik aloqalari, qo‘shnilar, virtual do‘stlar va h.k.) ham o‘z-o‘zidan o‘smirning individualligining yuzaga chiqishiga ma‘lum bir hissa qo‘shadi. O‘smirlar bilan muloqotda xalq pedagogikasining ma‘naviy qiyofani shakllantirish bo‘yicha ta‘limiy muassasalarning o‘quv va o‘quv faoliyatidan tashqaridagi tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishning asosiy pedagogik shartlari quyidagilar bo‘ladi: - etnomadaniy qadriyatlarni o‘zlashtirish uchun rag‘bat sifatida o‘quv-tarbiyaviy jarayonga pedagogik vaziyatlarni kiritish (uyali, dialogli, loyihali); - o‘zbek xalqining madaniyati tarbiyaviy imkonida o‘smirlarda ma‘naviy qiyofani shakllantirishga ko‘maklashuvchi o‘quv-ijodiy vazifalarni hal qilish bo‘yicha innovasion pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish (mahorat darslari, loyihaviy taomillar, ishga oid o‘yinlar, portfolio); - ta‘limiy borliqda tarbiyalovchi muhitni yaratish: o‘quvchilarning qadriyatli orientasiyalari xarakterini aniqlash, an‘anaviy va zamonaviy oilaviy qadriyatlarni rag‘batlantiruvchi muvaffaqiyat vaziyatini yaratish orqali ularning ma‘naviy qiyofasini shakllantirish; - pedagogning o‘smir bilan o‘zaro harakatlanishda uning oilaviy xususiyatlarini va u tarbiyalangan etnomadaniy muhitni inobatga olgan holda shaxsiy etnik va yarim madaniy kompetensiyalarini takomillashtirish asosida o‘smirlar ma‘naviy qiyofasini tarbiyalash masalalarida tarbiyaviy kompetentlik darajasini oshirish; - ota-onalar uchun umumiy o‘qitishni ta‘minlash psixologik-pedagogik ma‘rifat, tajriba almashish bo‘yicha konferensiyalar, davra suhbatlari, seminartreninglar, munozaralar va oilaning etnomadaniy xususiyatlariga muvofiq boshqa tadbirlar; o‘smirlar ma‘naviy qiyofasini targ‘ib qilish va o‘z-o‘zini tarbiyalashga yo‘naltirilgan etnomadaniy merosga asoslangan ta‘limning maxsus dasturlari va texnologiyalarini ishlab chiqish hamda ta‘lim muassasalari amaliyotiga tatbiq etish. Shunday qilib, o‘smirlar ma‘naviy qiyofasini ijtimoiy korreksiyalashning pedagogik strategiyasi - bu pedagoglarning shaxsiy etnomadaniy va yarim madaniy kompetensiyalarini oshirish, o‘quvchilarning turli qirrali faoliyatini uyushtirish va oilalar bilan bolalarni tarbiyalashda an‘analarni, qadriyatli orientasiyalarni qo‘llash sohasida ota-onalarning psixologik-pedagogik savodxonligini shakllantirish bo‘yicha ishlarni olib borishni oshirish yuzasidan integratsiyalashgan jarayon.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot.-T.: Universitet, 2002.- 96

2. Мунавваров А.Қ. Педагогика. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – 256 б

3. Nishanova, Z.T. Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya [Matn] :darslik / Z.T. Nishanova va boshq. — Toshkent: « O ‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2018. — 600 b

4. Талызина Н.Ф. Педагогическая психология, – Москва: Академия, 1998. – 288 с.

5. Xaydarov F., Xalilova N. Umumiy psixologiya, - Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2009. – 334 b.

6. G‘oziyev E.G‘. Ontogenez psixologiyasi, – Toshkent: Nif MSH, 2020.
